

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol.5 Issue01 | pp. 184-189 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASH AMALIYOTINING XORIJIY DAVLATLARI TAJRIBASI VA UNDA MILLIY AMALIYOTDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI TAHLILI



Qosimov Salohiddin Iskandarovich

“International school of finance technology and science” ISFT instituti

Menejment kafedrası o‘qituvchisi

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: qosimovsalohiddin45@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy xavfsizligini baholash amaliyoti bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganiladi va milliy amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Moliyaviy xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha xalqaro yondashuvlar, uslubiyat va ko‘rsatkichlar tahlil qilinib, ularning samaradorlik darajasi o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida milliy iqtisodiyot sharoitida joriy etilishi mumkin bo‘lgan innovatsion yondashuvlar va ularning istiqbollari aniqlanadi. Mazkur maqola moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga hissa qo‘shishni maqsad qilgan.

Kalit so‘zlar: Aksiyadorlik jamiyatlari, moliyaviy xavfsizlik, korporativ boshqaruv, sarmoya jalb qilish, moliyaviy ko‘rsatkichlar, investitsiya muhiti, ochiqlik va shaffoflik, davlat qonunchiligi, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, xalqaro tajriba, barqaror rivojlanish.

Kirish: Bugungi globallashuv sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy xavfsizligi nafaqat ichki iqtisodiy barqarorlik, balki xalqaro moliyaviy tizimlar bilan uyg‘unlashuv jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan bir qator qaror va farmonlar, xususan, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risi» da aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va moliyaviy boshqaruvni takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Mazkur strategiya asosida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko‘rsatkichlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, ularning moliyaviy xavfsizligini ta‘minlash va investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda xorijiy davlatlar, jumladan, AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning ilg‘or tajribasi asosida moliyaviy monitoring tizimlarini joriy etish, risklarni boshqarishning zamonaviy usullarini qo‘llash va korporativ boshqaruvning yuqori darajasiga erishish yo‘lida muhim qadamlar tashlandi.

Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy xavfsizligini tahlil qilish va baholashda xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan taklif etilgan innovatsion

yondashuvlar, jumladan, stress-test usullari, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari va kredit reyting tizimlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada xorijiy tajribani tahlil qilish orqali milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish, shuningdek, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning amaliy tavsiyalarini ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy xavfsizligini baholash va ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar hozirgi kunda yetarlicha rivojlanmagan bo'lib, bu sohada tadqiqotlarni kengaytirish zaruriyati mavjud. Ko'pchilik iqtisodchi olimlar korxonalarining umumiy moliyaviy xavfsizligi masalalarini o'rgangan bo'lsalar-da, aksiyadorlik jamiyatlarining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, qimmatli qog'ozlar daromadlilik, dividend to'lash qobiliyati va aksiyalarning likvidlik darajasi kabi masalalarga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Xalqaro tajribani chuqurroq tahlil qilish uchun AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning ilg'or yondashuvlari ko'rib chiqildi. Xususan, AQShda stress-test tizimlaridan samarali foydalanish orqali moliyaviy xavflarni oldindan baholash yondashuvi aniqlangan. Germaniya korporativ boshqaruvning shaffoflikni oshirish orqali investorlar ishonchini mustahkamlashga urg'u beradi.

I.A. Blankning fikriga ko'ra, moliyaviy xavfsizlik – korxonada moliyaviy strategiyasini mustaqil ravishda ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyati hisoblanadi. Bu tushuncha, korxonaning moliyaviy muvozanatini saqlab qolish, to'lov qobiliyatini ta'minlash va moliyaviy barqarorligini uzoq muddatli davrda ta'minlash qobiliyatini qamrab oladi.

N.V. Yakushina korxonada moliyaviy xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi qadamlarni taklif etadi:

1. Moliyaviy xavflarga ta'sir qiluvchi salbiy omillarni aniqlash va baholash.
2. Salbiy omillarni bartaraf etish uchun tegishli mexanizmlarni ishlab chiqish.
3. Ichki va tashqi xavflar ta'sirini kamaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

R.S. Papexin moliyaviy xavfsizlikni korxonaning turli risk sharoitlarida barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan moliyaviy holat sifatida ta'riflaydi. Uning ta'kidiga ko'ra, bu kompleks tushuncha bo'lib, korxonaning barqaror va uzluksiz rivojlanishi uchun asos bo'ladi.

A.V. Gukova va I.D. Anikina korxonaning moliyaviy xavfsizligini korporativ strategiya maqsadlariga muvofiq ravishda moliyaviy strategiyani mustaqil ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyati sifatida ta'riflashadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim Hamdamov O.N esa, Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy barqarorlik monitoring mexanizmini samarali tashkil etilishi, kompaniyaning belgilangan strategik maqsadlariga erishishda yo'qotilgan imkoniyatlar, moliyaviy barqarorlikni ekonometrik prognoz qilish, moliyaviy risklarni baholash asosida ularni darajasini minimallashtirish imkonini beradi degan qarashlarni ilgari suradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish muhim:

✚ aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlarining bozordagi holati va daromadlilikini tahlil qilish;

✚ dividend siyosati samaradorligini baholash;

✚ aksiyalarning likvidlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan mexanizmlarni ishlab chiqish;

✚ moliyaviy xavflarni boshqarishga doir zamonaviy texnologiyalar va strategiyalarni joriy etish.

Ushbu tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, deyarli ko'pchilik ilmiy ishlarda korxonalar moliyaviy xavfsizligi va uni ta'minlash masalalari yoritilgan. Fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlarining moliya bozoridagi holati bilan bog'liq ko'rsatkichlar va xususiyatlarni inobatga olgan holda moliyaviy xavfsizligini ta'minlashni tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi:

Ushbu tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy xavfsizligini baholash bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va ularning milliy amaliyotda qo'llanish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlar qo'llanildi.

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar asosiy o'rin tutdi:

1. **Nazariy tahlil:** Xorijiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari tahlil qilinib, moliyaviy xavfsizlikni baholash usullari va indikatorlari aniqlab olindi. Bu yondashuv xorijiy tajribaning asosiy tamoyillari va ko'rsatkichlarini tizimlashtirish imkonini berdi.

2. **Taqqoslash usuli:** Xorijiy davlatlarning moliyaviy xavfsizlikni baholashga oid uslublari milliy amaliyot bilan taqqoslanib, ularning o'ziga xos jihatlari va qo'llanish imkoniyatlari aniqlandi. Bu yondashuv milliy amaliyot uchun mos keluvchi eng samarali yondashuvlarni tanlashga yordam berdi.


3. **Empirik tahlil:** Milliy aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlari o'rganilib, xorijiy tajribaning milliy sharoitga moslashuvchanligini baholash imkonini beruvchi amaliy misollar tahlil qilindi.

4. **Statistik usullar:** Moliyaviy xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni aniqlash maqsadida iqtisodiy-statistik usullardan foydalanildi. Ushbu usul asosida olingan ma'lumotlar xorijiy tajribani qo'llashning samaradorligini aniqlashga xizmat qildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqot mavzusini kompleks o'rganish va xorijiy tajribadan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi: 2025 yilgacha mo'ljallangan Milliy Investitsiya dasturida O'zbekistonning iqtisodiy islohotlariga muvofiq amalga oshirilayotgan va umumiy qiymati 55,4 milliard dollar bo'lgan qariyb 800 loyihani qamrab oladi. Dastur infratuzilma va sanoat rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan bo'lib, davlat-xususiy hamkorlikni rag'batlantirish va investorlarga kapitalni erkin olib chiqish hamda milliylashtirishdan himoya qilish kabi qonuniy kafolatlar taqdim etadi. Shu o'rinda mamlakatimizdagi ayrim statistikalarga e'tibor qaratsak.


Aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondlaridagi davlat ulushi tuzilmasi



1-rasm. O'zbekistondagi Aksiyadorlik Jamiyatlarining asosiy ko'rsatkichlari¹.

1-rasmda ko'rishimiz mumkinki O'zbekistonda 2024-yil oktabr oyi boshida 680 ta aksiyadorlik jamiyati faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilning shu davriga nisbatan 10 foizga ko'pdir bu esa investitsiya muhiti yashilanayotganidan dalolat beradi. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi ma'lumotlariga qaraganda Aksiyadorlik Jamiyatlari soni sezilarli darajada o'sgan. Shuningdek 2-rasmda ko'rishimiz mumkinki Aksiyadorlik Jamiyatlarning 334 tasi xorijiy ulushga ega bo'lib, ularning asosiy qismi – 99,2 foizi xorijiy yuridik shaxslarga, qolgan 0,8 foizi jismoniy shaxslarga

Aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondidagi xorijiy ulush tuzilmasi



tegishli hisoblanadi.

2-rasm. O'zbekistondagi Aksiyadorlik Jamiyatlarining ulushlar ko'rsatkichlari².


¹ <https://uzcsd.uz/>

² <https://uzcsd.uz/>

Aksiyadorlik jamiyatlaridan mamlakatga bir nechta muhim foyda bor. Ulardan biri – moliya va kapitalni jalb qilish. Aksiyadorlik jamiyatlari katta miqdordagi mablag'larni aksiyalar chiqarish orqali jalb qiladi. Bu jamiyatlarning davlat iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasi yirik korxonalar va loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Yirik moliyaviy resurslar mamlakat ichidagi sanoat va ishlab chiqarishni rivojlantiradi. Shuningdek, Aksiyadorlik jamiyatlari ko'p sonli ishchi kuchini jalb qiladi, bu esa davlatda ish bilan ta'minlash darajasini oshiradi. Shu bilan birga, xorijiy investorlar ishtirokida tashkil etilgan qo'shma aksiyadorlik jamiyatlari yangi texnologiyalarni olib kiradi, bu esa ishchilar malakasini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlari o'z faoliyati davomida davlatga soliqlar to'laydi. Bu soliqlar davlat budjetini to'ldirishda va davlat xizmatlari, infratuzilma rivojlantirishda foydalaniladi.

Bundan tashqari, xorijiy investorlar aksiyadorlik jamiyatlarida qatnashib, o'z investitsiyalarini olib kelishlari mumkin. Bu mamlakatga xorijiy sarmoya kiritilishi va iqtisodiyotning global bozorga integratsiyalashuviga yordam beradi.

Mamlakatimiz o'tgan yilda aksiyadorlik jamiyatlaridan sezilarli miqdorda foyda ko'rgan. Xususan, qimmatli qog'ozlar chiqarilish hajmi 22,9 trillion so'mga oshgan. Bundan tashqari, davlat aksiyadorlik jamiyatlari orqali soliqlar va dividendlardan ham daromad olgan. Masalan, "O'zmetkombinat" kabi yirik korxonalar oddiy aksiyalar uchun har bir aksiya bo'yicha 683,35 so'm dividend to'lagan. Bu kabi to'lovlar davlat budjetiga ham sezilarli daromadda hissa qo'shgan. Shuningdek, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining ustav fondi va aktivlari davlat uchun qo'shimcha daromad manbai bo'lmoqda. Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining umumiy aktivlari hajmi ham yil davomida ortib borgan, bu davlatning aksiyadorlik jamiyatlari orqali ko'rgan foydasini yanada oshirgan.



3- rasm. Xorijiy davlatlarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash ko'rsatkichlari.³

Yuqoridagi grafikda AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarning moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari tasvirlangan. Grafik quyidagilarni aks ettiradi:

³ Manba: IMF (International Monetary Fund) va OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan. Ushbu manbalar moliyaviy xavfsizlikni baholash bo'yicha xalqaro ko'rsatkichlarni taqdim etadi.

1. **Stress-test tizimlari samaradorligi:** Moliyaviy xavfsizlikni baholashda davlatlar tomonidan foydalaniladigan stress-test usullarining muvaffaqiyat darajasi.

2. **Moliyaviy monitoring samaradorligi:** Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun qo'llaniladigan monitoring tizimlarining natijadorligi.

3. **Shaffoflik darajasi:** Korporativ boshqaruv tizimining ochiqlik va shaffoflik ko'rsatkichi.

Xulosa: Ushbu tadqiqot natijalari aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy xavfsizligini baholashda xalqaro tajribaning ahamiyatini namoyon etadi. Xususan, stress-test tizimlari, moliyaviy monitoring va shaffoflikni oshirish bo'yicha xorijiy davlatlarda qo'llaniladigan usullar milliy amaliyotga moslashtirilishi mumkinligi aniqlandi. Tadqiqot davomida O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy xavfsizlik ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun xorijiy tajribaga asoslangan yangi mexanizmlar ishlab chiqish zarurligi qayd etildi.

Milliy iqtisodiy sharoitda stress-test tizimlaridan foydalanish, qimmatli qog'ozlar bozorining likvidligini oshirish va dividend siyosatini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvlar aksiyadorlik jamiyatlarining barqaror rivojlanishi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida xorijiy tajribani yanada chuqurroq o'rganish va uning milliy sharoitga moslashuvini ta'minlash ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son.
2. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). Corporate Governance and Financial Safety Standards, 2023.
3. I.A. Blank. Korxonada moliyaviy xavfsizligini ta'minlash: Nazariy asoslar.
4. N.V. Yakushina. Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash strategiyalari.
5. R.S. Papexin. Risk sharoitlarida korxonada barqarorligi.
6. A.V. Gukova va I.D. Anikina. Korxonada moliyaviy strategiyasining ahamiyati.
7. Hamdamov Omonullo Ne'matullayevich. Aksiyadorlik Jamiyatlari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy menejmentning ahamiyatini oshirish istiqbollari. Iqtisodiyot va moliya (O'zbekistan), 29-35. 2021
8. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi hisobotlari, 2024.
9. IMF (International Monetary Fund). Financial Stability Reports, 2024.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

